

---

**TIL TA'LIMIGA XALQARO TADQIQOTLAR MAZMUNINI OLIB  
KIRISHNING PEDAGOGIK MUAMMOLARI**

**Ismadiyorova Nafisaxon Ibroximjon qizi**

*Andijon davlat pedagogika instituti, O'zbek tili va  
adabiyoti kafedrasи o'qituvchisi,*

*Tel.: +998 99 930 95 13, E-mail: [anddupimanaviyat@mail.ru](mailto:anddupimanaviyat@mail.ru).*

**Annotatsiya.** Maqolada xalqaro tadqiqot tushunchasi, uning o'ziga xosliklari va xalqaro tadqiqotlarni ona tili ta'limi jarayoniga olib kirishdagi o'ziga xosliklar va uning pedagogik muammolari haqida so'z yuritilgan. Shuningdek, ushbu maqolada xalqaro va mamlakatimizda o'tkazilgan tadqiqotlar natijasi haqida ma'lumot keltirilgan.

**Kalit so'z:** Xalqaro tadqiqotlar, texnik standart, REDS, Milliy markaz, milliy tadqiqot.

**Abstract.** This article discusses the concept of international research, its distinctive features, and the peculiarities of introducing international research into the native language education process, along with its pedagogical challenges. Additionally, the article provides information on the results of international and domestic research conducted in our country.

**Keywords:** International research, technical standard, REDS, National Center, national research.

**Аннотация.** В статье рассматривается понятие международного исследования, его особенности, а также специфика внедрения международных исследований в процесс обучения родному языку и связанные с этим педагогические проблемы. Кроме того, в данной статье представлена информация о результатах международных и отечественных исследований.

**Ключевые слова:** Международные исследования, технический стандарт, REDS, Национальный центр, национальное исследование.

Kirish. Pedagogik ta'lim bugungi kunda mahoratli, bilimli va tasavvuri keng pedagoglarni talab qilmoqda. Bugungi ta'lim jarayonida o'qituvchining vazifasi nafaqat bilimlarni yetkazish, balki bilim va faoliyat usullarini o'zlashtirish jarayonini boshqarishdir. O'quvchining vazifasi esa bilimlarni tizimli o'zlashtirish, qayta ishlash, saqlash, ishlatalish, o'z shaxsiy fazilatlarini rivojlantirishdan iborat. Har bir dars noan'anaviy bo'lishi uchun yangidan yangi dars ishlanmalar yaratilishi dolzarb maqsadlardan bo'lmoqda. O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasida to'rtinchi ustuvor yo'nalish aynan ta'lim sohasini, inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan<sup>8</sup>ligi ham fikrimizni isbotlaydi. Shu paytgacha foydalanib kelinayotgan ta'lim standartlari, o'quv dasturlari faqat nazariy bilim berishga yo'naltirilgan bo'lib, bolalarni mantiqiy fikrlashga, amaliyotga, hayotga o'rgatmayapti<sup>9</sup>. Chunki ayni damdag'i metodik faoliyat yod oldirishga,

---

8 Sh. M. Mirziyoyev. Maktab ta'limini rivojlantirish masalalari bo'yicha videoselektor 28.01.22.

9 Sh. M. Mirziyoyev. Maktab ta'limini rivojlantirish masalalari bo'yicha videoselektor 28.01.22.

grammatik qoidalarni o‘rganishga qaratilgan. Bu esa ona tili ta’limining asl maqsadini ochib bera olmaydi.

Ta’lim murakkab jarayon hisoblanib, hech bir fan boshqa fanlardan ayro holatda mustaqil rivojiana olmaydi. Ular o‘zaro doimiy aloqada. O‘qitishdan maqsad qoidalarni yod oldirish emas, balki o‘rganilgan ma’lumotlarni amalda qo’llay olish hamda uni anglatish bilan baholanadi. Shu o‘rinda Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev raisligida o‘tkazilgan maktab ta’limini rivojlantirish masalalari yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida so‘zlagan nutqi ayni haqiqatdir: “Shu paytgacha foydalanib kelinayotgan ta’lim standartlari, o‘quv dasturlari faqat nazariy bilim berishga yo‘naltirilgan bo‘lib, bolalarni mantiqiy fikrlashga, amaliyatga, hayotga o‘rgatmayapti”. O‘quvchilar mantiqiy fikrlashiga qaratilgan dars metodlarini yaratish o‘qituvchilarning dolzarb vazifasidir.

Xalqaro tadqiqotlarga tayyorlanish jarayoni ham o‘quvchilarning o‘qib tushunish, tinglab tushunish va amaliyatda qo’llay olishning mukammal darajasini talab etadi.

Xalqaro tadqiqotlar texnik standartlariga ko‘ra, 15 yosh-u 3 oylikdan 16-yosh-u 2 oylikka to‘lgan, yettinchi va undan yuqori bo‘lgan sinflarda tahsil olayotgan o‘quvchilar xalqaro tadqiqotlar yoshidagi o‘quvchilar sanaladi. Tadqiqotning tajriba-sinov jarayoni 42 kalendar kuni, asosiy tadqiqotlar esa 56 kalendar kuni davomida amalga oshiriladi<sup>10</sup>. Bundan tashqari IEA tashkiloti, YUNESKO va Jahon banki hamkorlikda REDS tadqiqotini o‘tkazish ham mo‘ljallangan. Ushbu tadqiqot yuqoridaqi xalqaro tadqiqotlar kabi bilim va ko‘nikmalarini emas, balki o‘quvchilar, o‘qituvchilar, shuningdek maktab rahbariyati tomonidan to‘ldiriladigan so‘rovnomalalar hisoblanadi. Ushbu so‘rovnomalarda 8-sinf o‘quvchilari qatnashishi nazarda tutiladi. Ushbu so‘rovnomalarga ko‘ra, ta’lim sohasiga oid qanday qaror va chora-tadbirlar ishlab chiqish kerakligi bo‘yicha amaliy ma’lumotlarga ega bo‘lish mumkin.

Xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik jarayonlarini boshqarish maqsadida Milliy markaz faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Tashkil etilgan markaz quyidagi muammolarga yechim topishni nazarda tutadi:

“Birinchidan, o‘quvchilarning bilim darajasidagi nuqsonlar. 2019-yil mamlakatimiz 1035 ta maktabda o‘tkazilgan monitoring natijalariga ko‘ra, o‘quvchilarning o‘rtacha o‘zlashtirishi 70 foizni, sifat ko‘rsatkichi 44,8 foizni tashkil etgan, xolos.

Ikkinchidan, bizda mavjud darsliklarda xalqaro tadqiqotlar topshiriqlariga o‘xshash masala va misollarning kamligi. xalqaro tadqiqotlar topshiriqlari esa uzundan uzun matnlar yordamida tasvirlanib, ulardagi real vaziyat va muammolarni hal qilish usulini tanlash uchun matematikaning qaysi bo‘limiga murojaat qilish haqida ko‘rsatmalar yo‘q. xalqaro tadqiqotlar topshiriqlari (matnli, rasmlli, diagramma va jadvallar, real bog‘lanish grafikalari) turli shakllarda taklif qilinadi”<sup>11</sup>. Ko‘ndalang qo‘yilgan ikki muammo asosli ravishda ko‘tarilgan. Ya’ni tadqiqot oldidan olingan tajriba-sinov nazorat natijasi qoniqarli bo‘lmadi va biz tadqiqot uchun qanday tayyorgarlik ko‘rishni bilmaymiz. 2019-yilda nashr etilgan

10 Asqarova M. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘qish va matnni tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirish: ped. fan. nomz. ... diss. NamDU. – Namangan, 2020. – B. 14.

11 <https://hozir.org/xalqaro-tadqiqot-turlari-pirls-timss-xalqaro-tadqiqotlar-talis-matematik-savo.html> (murojaat sanasi 3.12.2019)

ona tili fani darsliklarda keltirilgan topshiriqlar orasida diagramma, jadvalli, murakkab va aralash matnlari keltirilmagan edi. 2020-yil 10-16-dekabr kunlari mamlakatimizda tasodifiy tanlash tamoyili ostida xalqaro tadqiqotlar dasturi talablari asosida Milliy tadqiqot o'tkazildi. Uning natijalari 12ga ko'ra, umumiy hisobda o'qish savodxonligi 22,9%, matematik savodxonlik 48,8%, tabiiy-ilmiy savodxonlik 41,8%li o'zlashtirish ko'rsatkichi ma'lum bo'ldi. Ushbu raqamlar ikki yildan so'ng o'z isbotini topdi, ya'ni o'qish savodxonligi bo'yicha eng quyi ko'rsatkich yana qayd etildi. O'quvchilarda o'qish savodxonligi rivojlantirish amalda barcha fanlar bo'yicha ko'nikmalarning samaradorligini oshirishda poydevor bo'ladi. Ana shularni anglagan holda Milliy markaz tomonidan salmoqli ishlar tashkil etildi. Shuningdek, aynan ushbu holatning natijasi xalqaro tadqiqotlar natijasida ko'zga tashlandi. Ya'ni sinovda ishtirok etgan 81 ta mamlakatlar orasida 80-o'rinni tashkil etdi.

**Xulosa.** Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar shuni anglatadiki, tadqiqot "anglash" jarayoniga asoslanadi. Haqiqatdan ham o'qitishda, nutq o'stirish va kreativ fikrlashni rivojlantirishda, tafakkur o'stirishda anglashning o'rni muhim. Anglash tushunchasiga "gap, fikr-mulohaza va shu kabilarning mazmunini bilib olmoq, tushunmoq; idrok etmoq, fahmlamoq" 13 deya izoh berilgan. Anglash idrok etishni bildirar ekan, psixologiya fanida idrokka harakat 14 sifatida ta'rif beriladi. Bizningcha, anglash ham nafaqat holatni, balki harakatni ham nazarda tutadi. Ya'ni xalqaro tadqiqotlar dasturida berilgan topshiriqlarni o'qib tushunish va ma'nosini anglash uchun shartini bajarib ko'rish yoki chizib ko'rish yaxshi samara beradi. Matnni o'qigan o'quvchi matnda "doira" so'zini o'qimasa-da, aynan ushbu obyekt haqida gapirilayotganini tushunishi, anglashi lozim. Oldimizda turgan yana bir muammo shuki, bizda 130 dan ortiq millat yashaydi, ta'lim esa 7 tilda yo'lga qo'yilganligi ham tarjima qilishda kichik muammoga sabab bo'ladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh. M. Mirziyoyev. Maktab ta'limini rivojlantirish masalalari bo'yicha videoselektor 28.01.22.
2. Sh. M. Mirziyoyev. Maktab ta'limini rivojlantirish masalalari bo'yicha videoselektor 28.01.22.
3. Asqarova M. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish va matnni tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish: ped. fan. nomz. ... diss. NamDU. – Namangan, 2020. – B. 14.
4. [https://hozir.org/xalqaro-tadqiqot-turlari-pirls-timss-xalqaro\\_tadqiqotlar-talis-matematik-savo.html](https://hozir.org/xalqaro-tadqiqot-turlari-pirls-timss-xalqaro_tadqiqotlar-talis-matematik-savo.html) (murojaat sanasi 3.12.2019)
5. O'zbek tilining izohli lug'ati. –T.: O'zME, 2020. – B. 83.
6. Petrovskiy A.V. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O'qituvchi, 1992. – 299 b.

12 <https://bit.ly/3rNK7hw> (murojaat sanasi 15.02.2021)

13 O'zbek tilining izohli lug'ati. –T.: O'zME, 2020. – B. 83.

14 Petrovskiy A.V. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O'qituvchi, 1992. – 299 b.